



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

SIYOSIY PARTIYALAR TO'G'RISIDA**1-modda. Siyosiy partiya tushunchasi**

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

2-modda. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiylarini asoslari

Oldingi tahririga qarang.

Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, ushbu Qonunga, boshqa qonunchilik hujjatlari muvofiq, shuningdek o'z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

(2-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

3-modda. Siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishini prinsiplari

Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqligini, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoraliq asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Quyidagi siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi:

konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;

O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi;

urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;

xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;

milliy va diniy ruhdagi partiyalar.

4-modda. Siyosiy partiyalarga a'zolik

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi mumkin.

Partiyaga mansubligiga ko'ra fuqaroning huquqlarini har qanday cheklash, xuddi shuningdek unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti respublika barcha fuqarolarining huquq va erkinliklariga rivoja qilinishining kafili sifatida prezidentlik vakolatlarini bajarish muddati davomida siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtiroy etishni to'xtatib turishi yoxud butunlay to'xtatishi shart.

Quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar:

sudýalar;

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining mansabdor shaxslari;

(4-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-martdagagi O'RQ-612-soni Qonuniga asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2020-y., 03/20/612/0326-soni)

prokurorlar va prokuratura tergovchilar;

Oldingi tahririga qarang.

ichki ishlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari;

(4-modda to'rtinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrbdagi O'RQ-575-soni Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2019-y., 03/19/575/3972-son)

harbiy xizmatchilar;

xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar.

Siyosiy partiyalariga a'zolik yakka tartibda qayd etiladi.

5-modda. Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari

Davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining siyosiy partiyalar ichki ishlari aralashishlari yoxud, agar faoliyat qonunga hamda o'z ustavlariga muvofiq amalga oshirilayotgan bo'lsa, ular faoliyatiga u yoki bu tarzda to'sqinlik qilishlari man etiladi.

Siyosiy partiyalarning davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Siyosiy partiyalar tashkilotlarining tadbirlari asosan ular a'zolarining ishdan tashqari vaqtida va ana shu partiyalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi. Xususiy ish beruvchilarning o'z xodimlaridan ular mehnat vazifalarini bajarayotgan paytda partiya nomidan siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni talab qilishi man etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Siyosiy partiyalar apparati xodimlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta haqidagi qonunchilik tatbiq etiladi.

(5-moddaning beshinch qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

6-modda. Siyosiy partiyani tuzish

Oldingi tahrirga qarang.

Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi.

(6-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrdagi 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjalarni tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis syezdi yoki konferensiysi chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim.

Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir.

Siyosiy partiya ta'sis syezdida yoki konferensiysida tuziladi.

Ta'sis syezdi yoki konferensiysi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo'yiladigan organlarini tuzadi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning siyosiy partiyalarini, ularning bo'linmalarini tashkil etishga va ularning faoliyati amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 2-iyuldaggi O'RQ-934-soni Qonuniga asosan yettinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2024-y., 03/24/934/0469-son)

7-modda. Siyosiy partiyaning ustavi

Siyosiy partiyaning ustavida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

partiyaning nomi, maqsadi va vazifalari;

partiyaning tuzilishi;

partiya a'zoligiga qabul qilish va undan chiqish shartlari va tartibi;

partiya a'zolarining huquq va majburiyatlari;

partiya va uning tashkilotlari rahbar organlarining vakolatlari hamda ularni tuzish (chaqirish) tartibi, ularning vakolat muddatlari;

partiya rahbar organlarining faoliyatini nazorat qilish tartibi;

partiya va uning tashkilotlari mablag'larini shakllantirish hamda boshqa mol-mulkini sotib olish manbalari;

partiya rahbar organi joylashgan manzil;

partiya ustavi va dasturini qabul qilish, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi;

partiya faoliyatini qayta tashkil etish yoki to'xtatish tartibi.

Ustavda partiya faoliyatiga oid boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin.

8-modda. Siyosiy partiyalarni ro'yxatga olish

Siyosiy partiyalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun ustav qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida quyidagilar taqdim etiladi:

partiya rahbar organining kamida uch a'zosi imzolagan ariza;

ustav;

dastur;

ta'sis syezdi yoki konferensiyasining bayoni;

Oldingi tahririga qarang.

(8-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-fevraldag'i O'RQ-905-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son)

Oldingi tahririga qarang.

ushbu Qonun talablari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar, shu jumladan mazkur partiyaga birlashish istagini bildirgan yigirma ming nafar O'zbekiston Respublikasi fuqarosining o'zları imzo qo'ygan ro'yxati, saylab qo'yiladigan organlarning a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, turar joyi va ish joyi, telefon raqami), rahbar organ a'zolariga vakolatlari, shu jumladan ro'yxatdan o'tkazish jarayonida yoxud munozaralar kelib chiqqan taqdirda sudda partiya nomidan ishtirok etish huquqi berilganligi to'g'risidagi partiya oliy organining qarori.

(8-moddaning ikkinchi qismining yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrdagi 568-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2004-y., 1-2-son, 18-modda)

Oldingi tahririga qarang.

Siyosiy partiyani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalariga binoan siyosiy partiyani ro'yxatga olish yoki ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qaror qabul qilingach, uzog'i bilan uch kun muddat ichida u siyosiy partiya rahbar organiga beriladi yoki pochta orqali jo'natiladi.

(8-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdag'i 832-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)

Siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o'z faoliyatini amalgalash oshirishi mumkin.

Siyosiy partiyalar ustavlariga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar ularning ustavlarini ro'yxatga olish uchun ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Siyosiy partiya ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

9-modda. Siyosiy partiyani ro'yxatga olishni rad etish

Oldingi tahrirga qarang.

Agar siyosiy partiyaning ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga**, ushbu Qonunga hamda boshqa **qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa** yoki **oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa**, bu partiya ro'yxatga olinmaydi.

Siyosiy partiyani ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligi** taqdim etilgan hujjatlar qonunchilikning qaysi qoidalariga zid ekanligini ko'rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organining vakolatli a'zosiga **yozma tarzda xabar qiladi**. Ushbu siyosiy partiya rahbar organining vakolatli a'zolari ro'yxatga olish **rad etilganligi to'g'risida xabarnoma olingan kundan e'tiboran bir oy ichida** hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga** va qonunchiligidagi butunlay muvofiq holga keltingan taqdirdagina partiyani ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga **takror murojaat etishga haqlidirlar**.

(9-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni **Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi**, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Siyosiy partiyani ro'yxatga olishni rad etish ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

10-modda. Siyosiy partyaning faoliyatini to'xtatib turish

Oldingi tahrirga qarang.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasini**, ushbu Qonunni, boshqa qonunchilik hujjatlarini yoki o'z ustavini buzgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligi** qonunchilikning yoki ustavning qaysi normalari buzilganligini ko'rsatgan holda bu xususda partiya rahbar organlariga **yozma tarzda xabar qiladi** va bunday buzishlarni bartaraf etish uchun **muddat belgilaydi**. Agar buzishlar belgilangan muddat davomida bartaraf etilmasa, O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligi** yoki O'zbekiston Respublikasi **Bosh prokurorining taqdimnomasiga** binoan O'zbekiston Respublikasi **Oliy sudi** siyosiy partyaning faoliyatini **olti oygacha muddatga to'xtatib turishi mumkin**.

(10-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni **Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi**, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Siyosiy partyaning faoliyati to'xtatib turilgan taqdirda, shu muddat davomida partyaning har qanday ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi, targ'ibot va tashviqot ishlarni olib borishi, saylovlarida ishtirok etishi man qilinadi.

11-modda. Siyosiy partyaning faoliyatini tugatish

Siyosiy partyaning faoliyati quydagi tarzda tugatiladi:

partyaning o'z ustaviga muvofiq tarqalib ketishi orqali, bu haqda partiya oliy organi **uch kunlik muddat** ichida O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligiga xabar qiladi**;

partiya ushbu Qonun 3-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan xatti-harakatlarni sodir etgan hollarda yoki o'z faoliyati to'xtatib qo'yilganidan so'ng bir yil **muddat ichida** o'sha xatti-harakatlarni takror sodir etgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining qarori bilan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining siyosiy partiya faoliyati tugatilganligi to'g'risidagi rasmiy xabari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan kundan boshlab siyosiy partyaning faoliyati tugaydi.

12-modda. Siyosiy partiyalarning huquqlari

Siyosiy partiyalar quydagi huquqlarga ega:

o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish;

saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orgali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish;

qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyyati organlari saylovlarida ishtirok etish;

partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiylar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

(12-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalar bilan shartnomaga munosabatlari o'rnatish.

Oldingi tahrirga qarang.

Siyosiy partiyalar ushbu Qonunda hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari o'z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun, siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida tuziladi. Fraksiyalar fraksiyaning rahbari bergan tegishli ariza va ta'sis hujjatlariga asosan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan ro'yxatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiya fraksiyasi quyidagi huquqlarga ega:

Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibini tuzishda ishtirok etish;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini lavozimidan ozod etish to'g'risidagi tashabbus bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilish;

(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi O'RQ-90-sonli Qonuni asosida uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2007-y., 15-son, 153-modda)

Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda fraksiya vakiliga kafolatlangan so'z berilishi;

tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeriga va O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, vazirlarga, shuningdek boshqa davlat organlarining rahbarlariga so'rov bilan murojaat etish;

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilik palatasining Spiker o'rinnbosarligiga qo'mitalari va komissiyalari raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish;

(13-moddaning ikkinchi qismi oltinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi O'RQ-90-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2007-y., 15-son, 153-modda)

Qonunchilik palatasining majlisida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha fraksiya fikrini deputatlar orasida tarqatish;

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilik palatasi deputatlari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

(13-modda ikkinchi qismining sakkizinchisi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Siyosiy partiya fraksiyasining rahbari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Kengashi tarkibiga kiradi.

Fraksiyalarning faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy jihatdan va boshqa xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasining devoni tomonidan ta'minlanadi.

(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi 621-ll-son Qonuni tahririda — O'R QHT, 2004-y., 25-son, 287-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

13¹-modda. Parlamentdagi ko'pchilik va parlamentdagi muxolifat. Siyosiy partiyalar fraksiyalarining blokka birlashishi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda blok tuzadigan bir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalarini parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etishi mumkin.

Yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalarini o'zlarini muxolifat deb e'lon qilishi mumkin.

(13¹-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-sentabrdagi O'RQ-563-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son — 2020-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Siyosiy partiyalar fraksiyalarining blokka birlashishi qonunda nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishda ularning mustaqilligini cheklab qo'ymaydi.

O'zini parlamentdagi muxolifat deb e'lon qilgan siyosiy partiya fraksiyasi qonunda fraksiyalar uchun nazarda tutilgan vakolatlar bilan bir qatorda quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi mas'ul qo'mitasining tegishli masala bo'yicha ma'ruzasi bilan bir vaqtida qonun loyihasining muqobil tahririni kiritish;

muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan o'zining alohida fikrini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining yalpi majlisi bayonnomasiga kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun bo'yicha kelishuv komissiyasida o'z vakillarining kafolatli ishtirok etishi.

Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kamsitilishi mumkin emas.

(13¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi O'RQ-90-sonli Qonuni bilan kiritilgan — O'R QHT, 2007-y., 15-son, 153-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

14-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi va xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlari

Partiya guruhi — siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida, xalq deputatlari Kengashida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasi.

Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga yoki xalq deputatlari Kengashiga saylangan deputat faqat shu partianing partiya guruhi a'zosi bo'lishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi va xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlari siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlarning ta'sis yig'ilishlarida tuziladi. Partiya guruhlari partiya guruhi rahbarining tegishli arizasi va ta'sis hujjatlariga asosan tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari Kengashlari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi, xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlari ularda tegishli siyosiy partiyadan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga yoki xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlariga saylangan kamida uch nafar deputat birlashgan taqdirda tuziladi;

(14-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Partiya guruhi hisobga olish ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Partiya guruhining faoliyati quyidagi hollarda tugatiladi:

partiya guruhining o'z tashabbusi bilan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining yoki xalq deputatlari Kengashining vakolatlari muddati tugaganda;

partiya guruhi tarkibiga kiruvchi deputatlar soni uni tuzish uchun zarur bo'lgan me'yordan kamayib ketganda;

tegishli siyosiy partianing faoliyati tugatilganda.

(14-modda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 20-yanvardagi O'RQ-365-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2014-y., 4-son, 45-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

14¹-modda. Partiya guruhlarining huquqlari

Oldingi tahrirga qarang.

Partiya guruhlari quyidagi huquqlarga ega:

davlat hokimiyatining tegishli vakillik organi sessiyasi kun tartibini shakllantirishda ishtirok etish;

davlat hokimiyatining tegishli vakillik organi qo'mitalari yoki komissiyalari raisligiga, rais o'rindbosarligiga va a'zoligiga nomzodlar yuzasidan takliflar kiritish;

davlat hokimiyatining tegishli vakillik organi sessiyasi kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda partiya guruhi vakiliga so'z berilishini kafolatlash;

tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining va Vazirlar Kengashining raislariga, vazirlariga hamda boshqa davlat organlari rahbarlariga, hokimlarga, hokim o'rindbosarlariga, hokimliklar boshqarmalari, bo'limlari va boshqa bo'linmalarining rahbarlariga, shuningdek tegishli xalq deputatlari Kengashi hududida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlariga so'rov bilan murojaat qilish;

hududlarni rivojlantirish dasturlarining loyihalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;

tegishli hududda joylashgan davlat organi rahbarining, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan hisobotini yoki axborotini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari Kengashining sessiyalarida eshitish to'g'risida, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini ko'rib chiqish haqida takliflar kiritish. Bunda qaror deputatlarning yarmidan ko'pi qo'llab-quvvatlagan taqdirda qabul qilinadi;

tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining yoki xalq deputatlari Kengashining sessiyasida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha partiya guruhining fikrini deputatlar orasida tarqatish;

tuman (shahar) hokimining, shuningdek tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining qoniqarsiz faoliyati to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyat yoki Toshkent shahar hokimiga xulosa taqdim etish.

(14¹-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlaridagi partiya guruhlari viloyat hamda Toshkent shahar hokimi lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi huquqiga ega.

Partiya guruhlarining tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga va xalq deputatlari Kengashiga kiritiladigan masalalar bo'yicha taklifi albatta ko'rib chiqiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Partiya guruhlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(14¹-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesidagi partiya guruhlari faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish Jo'qorg'i Kengesning devoni tomonidan, xalq deputatlari

Kengashlaridagi partiya guruqlarining faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish esa, hokimliklarning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan ta'minlanadi.

(14¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 20-yanvardagi O'RQ-365-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2014-y., 4-son, 45-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(14²-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-oktabrdagi O'RQ-722-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son)

Oldingi tahrirga qarang.

15-modda. Siyosiy partiyalar mulki

Binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, nashriyotlar, transport vositalari, shuningdek ustavida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur boshqa mol-mulk siyosiy partiyalarning mulki bo'lishi mumkin.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Siyosiy partiyalar faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. Siyosiy partiyaning tadbirkorlik faoliyati natijalari uning moliyaviy hisobotida aks ettirilishi kerak.

(15-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli **Qonuni tahririda** — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Siyosiy partiyalarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari partiya a'zolari o'rtaida taqsimlanishi mumkin emas va ulardan faqat ustavda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi.

Siyosiy partiyalar har yili barchaning e'tibori uchun o'z budgetlarini e'lon qilib boradi va o'z faoliyatini moliyalashtirish manbalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergen organga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.

Siyosiy partiyalarning mulki **qonun** bilan muhofaza qilinadi.

(15-modda O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi 621-II-son **Qonuni tahririda** — O'R QHT, 2004-y., 25-son, 287-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(16-modda O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi 621-II-son **Qonuniga** muvofiq chiqarilgan — O'R QHT, 2004-y., 25-son, 287-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

17-modda. Siyosiy partiyalar faoliyatining qonunchilikka va o'z ustavlariga muvofiqligini nazorat qilish

Siyosiy partiyalarning faoliyati O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga**, qonunchilikka va o'z ustavlariga muvofiqligini O'zbekiston Respublikasi **Adliya vazirligi nazorat qiladi**.

(17-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli **Qonuni tahririda** — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1996-yil 26-dekabr,
337-I-son

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 36-modda; 1999-y., 9-son, 229-modda; 2004-y., 1-2-son, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 2007-y., 15-son, 153-modda; 2008-y., 52-son, 510, 513-modda; 2014-y., 4-son, 45-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son, 30.10.2019-y., 03/19/575/3972-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son; 18.03.2020-y., 03/20/612/0326-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021-y., 03/21/722/0960-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 04.07.2024-y., 03/24/934/0469-son)